

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
QO'QON FILIALI

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2022 yilga mo'ljallangan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari sohasidagi ilmiy-texnik anjumanlar rejasini tasdiqlash to'g'risida" farmoyishiga muvofiq, hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 39-son bayoni va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2023 yil 2 maydagi 118-son buyrug'iga muvofiq 2023 yil 5-6-oktabrda Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filialida "**Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish: muammo va yechimlar**" mavzusidagi Respublika ilmiy-texnikaviy anjuman o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Anjumanda muhokama qilinadigan yo'nalishlar:

№	Yo'nalishlar
1-seksiya	Muhandislik ishlanmalarini tijoratlashtirish muammolari va yechimlari;
2-seksiya	Ishlab-chiqarish va ta'lim integratsiyasidagi muammo hamda yechimlar;
3-seksiya	Materialshunoslik yo'nalishida tijoratlashtirish masalalari;
4-seksiya	Elektr texnikasi va elektr texnologiyalari sohalaridagi tijoratlashtirish masalalari.

Ilmiy-texnik anjumanda qatnashishga respublikamiz professor-o'qituvchilari, mutaxassislari, ilmiy xodim va izlanuvchilari hamda OTMLar iqtidorli talabalari va magistrantlari taklif etiladi. Anjumanda ishtirok etish uchun tezis va maqolalar **2023 yilning 5-6-oktyabrga** qadar qabul qilinadi.

Taqdim etiladigan anjuman materiallarini rasmiylashtirishga talablar:

- tezislar anjumanning ish sohalariga mos kelishi, yangilikka ega bo'lishi, tadqiqot natijalari, ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni o'z ichiga olishi kerak;
- tezislar *o'zbek va rus* tillarida taqdim etilishi mumkin.
- mualliflar nashrga taqdim etilgan materiallardagi ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgardirlar;
- har bir ishtirokchiga 2 ta dokladda ishtirok etishi mumkin.

Maqolalar MS Word matn muharririda tahrir qilinishi lozim. Times New Roman shriftida, 14 o'lchamda bo'lishi va maqolaning umumiy hajmi 3-4 betni tashkil etishi kerak. Format A4, yuqoridan va pastdan 2 sm, chapdan 3 sm va o'ngdan 2.5 sm. Maqola nomi 1,5 intervalda bosh harflar bilan yozilishi; muallif (lar) ismi va familiyasi; 1,5 intervaldan so'ng maqolaning annotasiyasi va asosiy matni 1 intervalli qatorlarda yoziladi.

Birinchi qatorda maqolaning nomi sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflarda, ikkinchi qatorda muallifning ismi-sharifi, ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi va shahar nomi ko'rsatiladi va yangi qatordan matn yoziladi. Maqolada keltirilgan raqamlar va dalillar asoslangan bo'lishi kerak. Matn oxirida foydalanilgan manbalar ro'yxati keltirilishi lozim.

Taqdim etiladigan maqolalar anjuman mavzusiga mos va maqsadiga muvofiq bo'lishi shart.

Tashkiliy qo'mita tomonidan ijobiy ma'qullangan maqolalar to'plam shaklida bepul chop etishga tavsiya etiladi.

Izoh: Maqolada konferensiya qaysi yo'nalishda o'tkazilishi mo'ljallanganligi aniq ko'rsatilishi lozim. Tegishli talablarga javob bermaydigan, ilmiy-amaliy tavsiyalarga ega bo'lmagan hamda kechiktirib taqdim etilgan ishlar konferensiya materiallariga kiritilmaydi va qaytarilmaydi.

Bog'lanish uchun telegramm va telefonlar: 1.2.3-sho'ba (90) 587-73-77; 4-sho'ba (97) 700-28-08;

Murojaat uchun manzil:

150700, Farg'ona viloyati, Qo'qon sh., ToshDTU Qo'qon filiali, Usmon Nosir ko'chasi, 4-uy. Bosh bino, Ma'sullar: M.Qambarov (91) 696-11-02, I.Usmonov (94) 133-62-28.

e-mail: e_journal@tdtukokand.uz azimovsh@tdtukokand.uz